

## BADIIY PSIXOLOGIZMDA MUALLIF-QAHRAMON-O'QUVCHI UCHLIGI MASALASI

*Farg'ona viloyati pedagogik mahurat markazi  
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi  
Nazirova Nargiza Odiljonovna*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada badiiy psixologizmning muallif–qahramon–o'quvchi uchligi asosida shakllanishi, uning nazariy asoslari hamda badiiy jarayonlarda tutgan o'rni tahlil etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, badiiy psixologizm yozuvchi, qahramon va o'quvchi ruhiy jarayonlarining uyg'unligi orqali yuzaga keladigan murakkab badiiy fenomen ekani isbotlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Badiiy psixologizm, muallif–qahramon–o'quvchi uchligi, ichki kechinma, ong oqimi, badiiy muloqot, psixologik talqin, o'quvchi idroki.*

## ПРОБЛЕМА ТРИАДЫ «АВТОР–ГЕРОЙ–ЧИТАТЕЛЬ» В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПСИХОЛОГИЗМЕ

**Аннотация:** *В данной статье анализируется формирование художественного психологизма на основе триады «автор–герой–читатель», раскрываются его теоретические основы и роль в художественном процессе. По результатам исследования установлено, что художественный психологизм представляет собой сложный художественный феномен, возникающий в результате гармоничного взаимодействия психических процессов автора, героя и читателя.*

**Ключевые слова:** *художественный психологизм, триада «автор–герой–читатель», внутренние переживания, поток сознания, художественная коммуникация, психологическая интерпретация, восприятие читателя.*

**Badiiy psixologizm** — bu yozuvchi, qahramon va o'quvchi o'rtasidagi murakkab psixologik muloqot natijasida yuzaga keladigan badiiy hodisadir. Tulaboyeva fikricha, yozuvchi ijod jarayonida tasavvuridagi o'quvchi bilan muloqotga kiradi, unga badiiy ma'lumotni yetkazadi, o'z hissiyotlari bilan o'rtoqlashadi va uni nimagadir ishontirishga intiladi; ayni shu muloqot asar matnida muhrlanadi, o'quvchi esa real suhbatdoshga aylanadi. Shu tarzda, badiiy asar — yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi kechiktirilgan badiiy muloqotni amalga oshiruvchi vosita hisoblanadi.

Solijonov fikricha, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini tasvirlar ekan, yozuvchi ham iztirob chekadi va bu holat o'quvchiga ham o'tadi<sup>22</sup>. Asarda masalaning yechimi emas, balki uning qo'yilishi muhim, yozuvchi o'quvchining o'z anglab yetishini ta'minlashi lozimligiga e'tibor qaratadi. Umurov esa yozuvchi-qahramon-o'quvchi uyg'unligini ta'kidlab: yozuvchi o'z his-tuyg'ularini to'liq his qilmasa, u haqida yozgan asari o'quvchiga ham ta'sir qilmaydi, yozuvchidagi his o'quvchiga to'liq "ko'chadi", qahramon orqali yetkaziladi va o'quvchi bu

<sup>22</sup> Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нукт поэтикаси: Филол.фанд-ри. ... дисс. – Тошкент, 2002. – Б.22.

uyg'unlikni qabul qilganda badiiy psixologizm yuzaga keladi<sup>23</sup> Yozuvchi P.Qodirov Umurov fikrini qo'llab, yozuvchining dilidagi tuyg'ularni kitobxon qalbiga yetkazadigan so'zlar topilmasa, ijodiy rejaning hayf bo'lishini ta'kidlaydi.

Rasulov yozuvchi holati va ruhiyatining asarlarda aks etishini ta'kidlab: "Sinchiklab o'rganilgan asar yozuvchining ichki kechinmalari haqida ko'p narsalarni ochib beradi"<sup>24</sup> - desa, Quronov: "Ijodiy niyat asarning xomaki eskizi bo'lib, yozuvchi uni ijro etar ekan, o'quvchiga ma'lum psixologik va hissiy ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi"<sup>25</sup> - deydi. Botirova esa yozuvchi faoliyatining uch bosqichini ajratadi: konseptual, ijro va nazorat bosqichi, bunda qahramonlar harakatlari va ichki dunyosi yozuvchi niyati bilan uyg'un bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi<sup>26</sup>.

Yana bir olim O.Ahmadjonova badiiy asarni yozuvchi ong osti istaklari, ijtimoiy-ma'naviy tafakkuri va estetik qarashlarining amalga oshmagan xohishlari bilan bog'laydi<sup>27</sup>. Shu jihatdan, psixoanalitik metodlar yordamida badiiy psixologizmni tahlil qilish asarning mohiyatini chuqurroq ochib beradi. Shu tarzda, badiiy psixologizm yozuvchi ichki kechinmalarini yaratishi, qahramonlar orqali aks ettirishi va o'quvchi tomonidan qabul qilinishi orqali yuzaga keladi. Yozuvchi, qahramon va o'quvchi o'rtasidagi bu uyg'unlik psixologizmning markazi bo'lib, til, ifoda, ichki monolog va ong oqimi vositalari orqali amalga oshadi. Badiiy asar faqat o'quvchi tomonidan o'qilganda va psixologik muloqot yuzaga kelganda haqiqiy badiiy hodisaga aylanadi; o'qilmagan yoki his qilinmagan matn esa faqat jismoniy ob'ekt sifatida qoladi. Shu bilan badiiy psixologizm yozuvchi, qahramon va o'quvchi o'rtasidagi murakkab, uyg'un va jonli psixologik jarayon sifatida ilmiy asosga ega bo'ladi.

Shukur Xolmirzayevning "Jarga uchgan odam" hikoyasi badiiy psixologizmning yozuvchi-qahramon-o'quvchi uchligi asosida shakllangan mukammal namunasi bo'lib, unda ichki ruhiy portlash tashqi harakat orqali ochiladi. Tulaboyeva ta'kidlaganidek, yozuvchi ijod jarayonidayoq tasavvuridagi o'quvchi bilan muloqotga kirishadi va unga faqat voqeani emas, balki ruhiy kechinmani yetkazishni maqsad qiladi<sup>28</sup>. Ushbu hikoyada ham Shukur Xolmirzayev tabiat manzaralari, sukunat, hayvonot olami tasviri orqali o'quvchini Islomning ichki olamiga sekin-asta olib kiradi. Islomning bolalikdan tog', o'rmon, hayvonot bilan ruhiy mushtarakligi Botirova ta'kidlagan birinchi bosqich — muallifning badiiy-estetik konsepsiyasi sifatida shakllanadi. Islom faqat tabiatni sevuvchi odam emas, balki uni o'z "ota-onasi", "do'sti", "vafodori" deb biladigan darajadagi ruhiy shaxsdir. Bu — Ahmadjonova ko'rsatganidek, yozuvchining ong osti, ideal tabiat haqidagi ichki tasavvurlarining qahramon orqali modellashtirilishidir.

Quronov aytgan ijodiy niyat va ijro birligi hikoyada ayniqsa keskin finalga kelib to'liq namoyon bo'ladi. Muallif avval o'quvchini Islomning sokin hayoti, tabiat bilan uyg'unligi, yolg'izlikni sevishi, hayvonotga mehribonligi orqali psixologik jihatdan tayyorlaydi. Bu

<sup>23</sup> Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: A.Qodirov nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

<sup>24</sup> Rasulov A. Ilmiy g'aribani qum sab. -T.: Ma'naviyat, 1998, -B. 27

<sup>25</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslik terminlari lugati. Internet materiali: www.quronov.narod.ru. 138-bet.

<sup>26</sup> Botirova Sh. Hozirgi uzbek romanlarida badiiy psixologizm. PhD diss. - Qarshi, 2019. - B.36

<sup>27</sup> Ahmadjonova O.A. Badiiy asar personajlari ruhiy va jismoniy holatlari tasvirining o'zaro uyg'unlashuvi (Asqad Muxtor "Tug'ilish" va "Chinor" romanlari misolida). PhD diss. - Farg'ona, 2018. -B.19.

<sup>28</sup> Tulaboyeva P. Xudoyberdi Tuxtaboev romanlarida psixologizm: Filol.fan.buyicha fals.dri.(PhD) diss., - Toshkent, 2019. - B.48.

jarayon Solijonov aytganidek, muammo “yechimi”ni emas, balki uning “qo‘yilishi”ni bosqichma-bosqich kuchaytirib boradi. Rejissyor obrazi aynan shu ruhiy muvozanatga kiritilgan yot unsurdir. U san‘at nomidan keladi, lekin tabiatni iste‘molchi ong bilan ko‘radi. Shu nuqtada Islom va rejissyor psixologiyasi o‘rtasidagi qarama-qarshilik faqat ijtimoiy emas, balki chuqur ruhiy ziddiyatga aylanadi.

Umurov ta‘kidlaganidek, yozuvchi o‘zi his qilmagan narsani yozsa, o‘quvchi ham his qila olmaydi. Bu hikoyada esa yozuvchi tabiatga bo‘lgan muhabbatni shunchaki tasvirlamaydi, balki uni Islom bilan birga yashaydi. Natijada Islomning ayiq o‘ldirilgan paytdagi holati o‘quvchiga bevosita “ko‘chadi”. Ona ayiqning yiqilishi, bolalarining uning emchagidan sut emishi manzarasi — bu bevosita psixologik zarba sahnasidir. Bu yerda Botirova aytgan bilvosita psixologizm ishlaydi: muallif Islom “azoblandi”, “nafratlandi” deb aytmaydi, balki tabiatning uvvosi, quloq shang‘illashi, ko‘z oldi qorong‘ilashuvi orqali ruhiy portlashni ko‘rsatadi. Aynan shu nuqtada Rasulov aytgan yozuvchi ruhiyati ham asar qatlamida to‘liq seziladi: muallifning ichki noroziligi, tabiatga qilingan zo‘ravonlikka qarshi ichki isyoni Islom harakariga ko‘chadi.

Hikoya yakunidagi manzara— rejissyorning jarga uchishi — tashqi zo‘ravonlik emas, balki ichki ruhiy hukmning tashqi ifodasidir. Islom o‘zini tabiatning yagona qo‘riqchisi deb his qilgan edi, endi esa u bu qasamga xiyonat qilolmaydi. Agar u qasos olmasa, o‘zini “xoin” deb his qilishi Umurov aytgan yozuvchi–qahramon ruhiy qo‘shilishining eng yuqori nuqtasidir. Shu sababli u ongli jinoyatchi sifatida emas, balki ruhiy portlash qurboni sifatida harakat qiladi. O‘quvchi bu sahnani o‘qir ekan, Solijonov aytganidek, muallif bilan birga iztirob chekadi, Quronov aytgan appelyativ vazifa ishga tushadi, ya‘ni asar o‘quvchini majburan axloqiy tanlov oldiga olib chiqadi: “Qotil kim?” degan savolning oddiy javobi yo‘q. Natijada, “Jarga uchgan odam” hikoyasida badiiy psixologizm yozuvchi–qahramon–o‘quvchi uchligining uzviy birligi sifatida shakllanadi: yozuvchi o‘z ichki ekologik va axloqiy iztirobini Islom obraziga joylaydi, Islom bu iztirobni ichida portlatadi, o‘quvchi esa bu portlashni o‘z ruhiyatida boshdan kechiradi. Hikoya faqat voqea emas, balki o‘quvchi qalbida sodir bo‘ladigan ruhiy silkinishdir. Shu ma‘noda, “Jarga uchgan odam” badiiy psixologizmning eng kuchli tragik namunasiga aylanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Solijonov Y. XX asrning 80-90 yillari o‘zbek nasrida badiiy nuqt poetikasi: Filol.fan.d-ri. ... diss. – Toshkent, 2002. – B.22.
2. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. Rasulov A. Ilmi g‘aribani qo‘msab. –T.: Ma‘naviyat, 1998, –B. 27
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. Internet materiali: [www.quronov.narod.ru](http://www.quronov.narod.ru). 138-bet.
5. Botirova Sh. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy psixologizm. PhD diss. – Qarshi, 2019. – B.36

6. Axmadjonova O.A. Badiiy asar personajlari ruhiy va jismoniy holatlari tasvirining o‘zaro uyg‘unlashuvi (Asqad Muxtor “Tug‘ilish” va “Chinor” romanlari misolida). PhD diss. – Farg‘ona, 2018. –B.19.

7. To‘laboyeva R. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida psixologizm: Filol.fan.bo‘yicha fals.dri.(PhD) diss., – Toshkent, 2019. – B.48.